

YAPON XALQ ERTAGI “URASHIMA TARO” ASARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMASI TAHLILI

Sattarova Ruxshona Botir qizi

O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi

Annotatsiya : Yaxshilik va yomonlik, mehr-shafqat, vaqt qadri kabi tarbiyaviy jihatlarni ifodalagan qadimiy yapon xalq ertagi “Urashima Taro” asari asrlar o'tsada hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan asarni o'zbek tiliga tarjima qilishda bolalar uchun tushunish qiyin bo'lmagan oson so'zlardan foydalanish kerak bo'ladi. Shunigdek, tarjimada madaniy, o'ziga xos terminlarning muqobil tarjimasini topish uchun qisqartirish va qo'shimcha izohlar kiritish kabi usullardan foydalanishga ehtiyoj bor. Yapon xalq ertagidagi terminlarning har biri madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lib, maqolada “Urashima Taro” asaridagi ayrim so'z va iboralarning o'zbek tilidagi sharhi, hamda ularni yapon tiliga tarjima qilishda qo'llash mumkin bo'lgan ayrim so'zlarning qiyosiy tarjimasini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: inson, qalb, vaqt, yordam, keksa, qiynash, oq ko'ngil, yosh yigit

Аннотация: Древняя японская народная сказка «Урасима Таро», выражающая такие поучительные аспекты, как добро и зло, доброта и ценность времени, не утратила своего значения даже спустя столетия. При переводе этой сказки, имеющей большую воспитательную ценность для детей, на узбекский язык необходимо использовать простые слова, несложные для понимания детьми. Кроме того, необходимо использовать такие методы, как сокращения и дополнительные пояснения, чтобы найти альтернативные переводы культурно специфических терминов. Каждый термин в японской народной сказке имеет свою культурную специфику, и в статье мы рассмотрим толкование некоторых слов и фраз в произведении «Урасима Таро» на узбекский язык, а также сравнительный перевод некоторых слов, которые можно использовать при их переводе на японский язык.

Ключевые слова: человек, сердце, время, помощь, старый, страдающий, добросердечный, молодой парень

Abstract: The ancient Japanese folk tale "Urashima Taro", which expresses educational aspects such as good and evil, kindness, and the value of time, has not lost its significance even after centuries. When translating this tale, which has great educational value for children, into Uzbek, it is necessary to use simple words that are not difficult for children to understand. In addition, there is a need to use methods such as abbreviations and additional explanations to find alternative translations of culturally specific terms in translation. Each

of the terms in the Japanese folk tale is culturally specific, and in the article we will consider the interpretation of some words and phrases in the work "Urashima Taro" in Uzbek, as well as the comparative translation of some words that can be used when translating them into Japanese.

Keywords: *human, heart, time, help, old, suffering, white-hearted, young guy*

Ezgulik, mehr-shafqat, yaxshilkka mukofot va vaqt qadri kabi tarbiyaviy, chuqur ma'noga ega bo'lgan Urashima Taro asarida yapon xalqining manaviy dunyoqarashi, madaniy hayoti va turmush tarzi aks ettirilgan. Quyida ushbu asardan parcha va uning tarjimasini keltiramiz.

むかしむかし、ある海辺の村に、浦島太郎という漁師が住んでいました。浦島太郎は心のやさしい若者で、毎日海へ出かけて魚をつって年老いたお父さんとお母さんを養っていました。

ある日、浦島太郎は海から帰る途中、浜で子供たちが集まって騒いでいるのを見ました。のぞいてみると、小さい亀の子を一匹つかまえて、皆で棒でつついていじめていました。その亀の子をかわいそうだと思った浦島太郎は、

「生き物をいじめてはいけないぞ。」

と子供たちに言って、亀の子を助けてやりました。太郎が亀の子を手のにせて海の水の中に戻してやると、亀の子は喜んで甲羅から首や手足を出して、すいすいと泳ぎ始めました。

Qadim qadimda, bir dengiz sohilidagi qishloqda Urashima Taro deb ataladigan baliqchi yashar edi. Urashima Taro juda mehribon odam bo'lib, har kuni dengizga chiqib baliq tutib qari ota-onasini boqar edi. Bir kuni Urashima Taro dengizdan qaytayotganda yo'lida sohilda bolalar yig'ilib shovqin qilayotganini ko'rdi. Ko'rishi bilan kichkina toshbaqani ushlab, hammasi tayoq bilan turtkilab qiynashar edi. Bu toshbaqa sho'rlik deb o'yladi Urashima Taro.

–“Jonzot qiynash mumkin emas” –deb bollarga aytib, toshbaqa bolasiga yordam berdi. Darrov toshbaqani qo'lga olib dengizga qaytarishi bilan, toshbaqa tezda kosasidan bo'yni va qo'l-oyoqlarini chiqarib, ohista suzishni boshladi.

Urashima Taro asaridan keltirilgan ushbu parchadagi ayrim so'zlarning tarjima izohida ko'rib chiqamiz.

心の優しい (kokorono yasashi) –bu so'zni ieroglif bo'yicha to'g'ridan –to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak kokoro –qalb, yasashi –yumshoq, mehribon degani bo'lib, umumlishtirsak o'zbek tilidagi “oq ko'ngil” degan tarjima chiqadi.

若者 (wakamono) –bu so'z yosh avlod vakili, hali hayot tajribasi to'liq shakllanmagan, lekin jismonan va ruhan faol bo'lgan insonni ifodalaydi. Odatda jamiyatda kelajak tayanchi,

yangilikka ochiq va rivojlanishga moyil bo‘lgan yosh yigit-qizlarga nisbatan ishlatiladi. Yaponiyada Asardagi ma’nosini olib qarasak yosh yigit degan ma’noda qo‘llasak bo‘ladi.

年老いた (toshi oita) – bu so‘z yoshi katta bo‘lib qolgan, hayot tajribasi ko‘p, vaqt o‘tishi bilan jismonan va ruhan sekinlashgan insonni ifodalaydi. Ko‘pincha hurmat ohangida, keksa yoshga yetgan kishilar haqida muloyim tarzda qo‘llanadi. O‘zbek tilida “toshi iota” ni keksa, qariya, yoshi ulug‘, yoshi o‘tgan kabi ma’nodoshlari bo‘ldi, asarda keksa yoki qari so‘zdan foydalansak kichik yoshdagi kitobxonlar uchun ham tushunarli bo‘ladi.

養う (yashinau) – bu so‘z boqmoq, ta’minlamoq, ya’ni boshqa bir insonning hayoti uchun mas’ul bo‘lib, unga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turmush sharoiti va g‘amxo‘rlik bilan qarash ma’nosini ifodalaydi. Odatda oila a’zolarini boqish, farzandni tarbiyalab ulg‘aytirish yoki biror kishini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash holatlarida ishlatiladi.

Shuningdek, “yashinau” hayvonlarni boqish, bola asrab olib, unga g‘amxo‘rlik qilishda ham ishlatiladi³⁸. Asarda ota-onaga nisbatan ishlatilganligi uchun boqmoq so‘zi emas, g‘amxo‘rlik qilmoq so‘zidan foydalangan maqbul.

漁師 (ryoushi) bu so‘z dengiz bilan hayotni bog‘lagan, tabiat bilan uyg‘un yashab, sabr va mehnat orqali risq topadigan inson ifodalangan. U har kuni dengizga chiqib, baliq tutadi va odamlarning oziq-ovqatiga hissa qo‘shadi. Asardagi asosiy qahramonimiz ham faqat baliqchilik kasbi egasi emas, tabiat bilan hamnafas inson sifatida tasvirlangan. Bu so‘z asardagi qahramonni kasbini ifodalash uchun ishlatilgan.

³⁹いじめる (ijimeru) – bu so‘z boshqa bir kishini ataylab kamsitish, mazax qilish, ruhiy yoki jismoniy bosim o‘tkazish harakatini bildiradi. Odatda kuchsizroq, himoyasiz yoki jamoadan ajralib qolgan insonlarga nisbatan takroriy va qasddan qilinadigan yomon munosabat ma’nosida ishlatiladi. Ko‘pincha maktab, ish joyi yoki jamiyat ichidagi salbiy holat sifatida qo‘llanadi. Asarda toshbaqa hayvonga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, hayvonlarni qiynash, mazax qilish, ularga shafqatsiz munosabatda bo‘lish ma’nosida “qiynamoq” so‘zidan foydalansak bo‘ladi.

Vaqtni qadrlash, barchasini taqdir izniga qoldirish kerakligi bilan yakunlanadigan ushbu asarga O‘tkir Hoshimovning ushbu iqtibosini keltirib o‘tsak bo‘ladi:

Taqdir degan gapni odamlar o‘zini yupatish uchun o‘ylab topgan bo‘lsa kerak. Boshimizga o‘g‘ir tashvish tushsa uning oqibatini ko‘ramiz-u, sababini surishtirib o‘tirmaymiz. Qismatdan nolib qo‘yaqolamiz. Ko‘pdan buyon xuddi shu qismat izimizdan quvib yurganini, uni o‘zimiz ergashtirib yurganimizni bo‘ynimizga olishdan qo‘rqamiz. (“Bahor qaytmaydi” O‘tkir Hoshimov)

³⁸ Webilio.jp/content/:

³⁹ <https://japanesetest4you.com>

Xulosa qiladigan bo'lsak, tarjima qilish jarayonida tarjima qilinayotgan asarning salohiyatini, kimlarga qaratilgan va qaysi shaklda yozilganligiga e'tibor qaratish zarurdir. Urashima Taro asari bolalarga xos sodda tilda yozilgan ertak bo'lib, uni tarjima qilishda ham bolalarga tushunish oson bo'lgan sodda so'zlardan foydalangan ma'qul. Shuningdek, ertaklarda izohga hojat qoldirmagan holda so'z tanlanib tarjima qilinsa kitobxon bolalar uchun ayni muddao bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Japanese stories for language learners", Anne McNulty & Eriko Sato, 2012
2. <https://Webilio.jp>
3. <https://japanesetest4you.com>